



## QO'QON XONLIGIDA TARIX FANINING RIVOJI

**Sotvoldiyev Sayfiddin**

Andijon davlat universitetin Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi  
3-bosqich 301-guruh talabasi:

**Abdullayev Muzrob**

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16555538>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Iyul 2025 yil

Ma'qullandi: 24-Iyul 2025 yil

Nashr qilindi: 29-Iyul 2025 yil

### KEY WORDS

*“Umarnoma”, “malik ul-shuaro”,  
167 yillik xonlik tarixi, Oltin beshik,  
“Tarixi Farg’ona”, “Muntaxab at  
tavorix”.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'rta Osiyo xonliklaridan biri bo'lmish Qo'qon xonligining tarixshunosligi, va shu qatorda tarix faniga o'z hissasini qo'shgan tarixchilar haqida ma'lumotlarga alohida to'xtalib o'tganmiz. Qo'qon xonligi (1709–1876) davrida ilm-fan, ayniqsa tarix fanining rivojlanishi Markaziy Osiyo madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Xonlikda tarixiy voqealarni yozma manbalarda aks ettirishga alohida e'tibor qaratilgan.*

Bu davrda Hofiz Tanish Buxoriy an'alarini davom ettirgan tarixnavislar, jumladan, Muhammad Hakimxon To'ra, Avaz Muhammad Attor Hoqandiy, Muhammad Solihxo'ja va boshqalar o'z asarlari bilan mashhur bo'ldilar. Ularning “Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin”, “Tarixi jadidai Toshkand”, “Tarixi Turkiston” kabi asarlari Qo'qon xonligi hamda butun Farg'ona vodiysi siyosiy va madaniy tarixini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi. Bu asarlarda nafaqat xonlik siyosiy hayoti, balki xalqning ijtimoiy turmushi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlar ham aks ettirilgan. Shu tariqa, Qo'qon xonligi davrida tarix fanining rivoji o'ziga xos ilmiy maktab yaratdi va keyingi avlodlar uchun qimmatli meros bo'lib qoldi.

Qo'qon xonligining tarix sohasiga oid asarlari o'ziga xos uslub va mazmun bilan ajralib turadi. Tarixiy voqealar ko'pincha she'riy uslubda, aruz vaznida yoki boshqa badiiy shakllarda bayon etilgan. Bu o'z navbatida tarix va adabiyotning uyg'unlashuviga olib kelgan.

Qo'qon xonligida tarix fanining shakllanishi va rivojlanishi. Qo'qon xonligi tarixshunosligi XVIII asrda o'zining an'anaviy shakllarini topa boshladi. Bu jarayon siyosiy va madaniy sharoitning o'zgarishi, xonlikdagi siyosiy tartib-intizomni mustahkamlash, hamda hukmdorlarning o'z faoliyatini yozma manbalar orqali hujjatlashtirish zaruriyati bilan bog'liq edi. Tarixshunoslik, odatda, saroy atrofidagi olimlar, diniy ulamolar va adiblar bo'lib, ular o'z asarlarida xonlik hayoti, siyosiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni ifodalaganlar.

Asarlarda hukmdorlar shaxsiyati, ularning siyosiy iqtidorlari va qahramonliklari alohida ta'kidlangan. Tarixchilar ko'pincha hukmdorlarni maqtash orqali siyosiy kuchni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, tarixiy voqealar diniy-falsafiy nuqtai nazardan ham talqin qilingan, bu esa tarixiy tafakkurda axloqiy va ma'naviy elementlarning kuchayishiga olib kelgan. Ijtimoiy-huquqiy tafakkur ham tarixiy asarlarda aks etgan. Aholining hayoti, soliqlar tizimi, sud-huquq munosabatlari haqida ma'lumotlar tarixiy manbalarda

ko'plab uchraydi. Bu esa Qo'qon xonligi jamiyatining ijtimoiy tuzilishini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Qo'qon tarixini o'rganishda tarixiy o'lkashunoslik ma'lumotlaridan foydalanish muhimdir. Farg'ona vodiysida vujudga kelib, o'z sarhadlarini qisqa muddat ichida g'arbda O'ratepa, Jizzaxgacha, sharqda esa Issiqko'l hududlarigacha kengaytira olgan, Xitoy imperiyasi bilan Sharqiy Turkistonda urush olib borib, o'zi uchun foydali shartnoma tuzishga majbur qilgan Qo'qon xonligi tarixini o'rganish sho'rolar davrida ahamiyatli emasdi. A.Hasanov, A.Nabiyev, A.Qayumov, E.Hojiyev, A.Troitskaya, H.Ziyoyev, H.Bobobekov, F.G'afforov, V.Akramov, S.Ishanxanov, V.Ploskix, T.Beysembiyev, E.Xurshut, A.Mahkamov, Sh.Vohidov kabi tarixchilarning bir necha asarlari e'lon qilingan. Lekin, bu 167 yillik xonlik tarixi uchun yetarli emas edi.<sup>1</sup>

Qo'qon xonligining birinchi tarixnavisi Fazliy Farg'oniy (Abulkarim Namangoniy) bo'lib, u "Umarnoma" nomli kitob muallifidir. U "malik ul-shuaro" unvoniga ega bo'lib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarni Amir Umarxonning ko'rsatmasi bilan yozgan. "Umarnoma" tojik tilida she'riy yo'l bilan yozilgan. Mazkur asarning yagona nusxasi Rossiya FA Sankt-Peterburg bo'limi fondida saqlanmoqda.<sup>2</sup>"Umarnoma" Amir Umarxonga ma'qul bo'lmadi, chunki uning talablariga javob bermas edi. Mushrif Isfaragiyning qalamiga mansub ushbu asarning nasriy varianti bilan taqqoslab, shunday hulosaga kelish mumkinki, Fazliy Farg'oniy bir necha "xatoliklarga" yo'l qo'ygan. Birinchidan, Minglar sulolasining asoschisi Oltin beshik haqidagi rivoyatni keltirmaydi. Bu rivoyat Umarxonning Bobur orqali Temur va temuriylar bilan qarindoshligini isbotlashi kerak edi. Ikkinchidan, Amir Umarxon o'zini amir al-muslimin deb e'lon qilib, islom va din peshvosi lavozimiga da'vo qilgan edi. Bu da'voni tarixiy jihatdan asoslab berish zarur edi. Mushrif Isfaragiyn esa Umarxonning sayidlar avlodidan ekanligini asoslab berishga harakat qildi. U xonning shajarasini tuzib, u ona tomondan Muhammad payg'ambarning qizi Fotimaning avlodidan ekanligini "isbotlab" berdi. 1821-yili Umarxon Mushrif Isfaragiynga Fazliy asarini qayta ishlashni topshiradi. Mushrif "Umarnoma"ni nasriy yo'l bilan bayon etib, uni "Shohnomayi nusratpayom" ("Shohning g'alabalari haqida xabar beruvchi kitob") deb ataydi. Bu ikki asarni bir-biriga qiyoslab, shunday xulosalar chiqarish mumkin.<sup>3</sup>

Bu davr tarixini yoritishda mahalliy yozuvchilarning asarlari ham juda qimmatli ahamiyatga ega. Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar, shu ma'lumotlarda keltirilgan asarlar hamda ularning mualliflari muhim o'rin tutadi. Mustaqillikka qadar xonlik tarixini o'rganishda, asosan, rus sayyohlari va elchilarining asarlariga ko'proq e'tibor berilgan. Natijada mafkura nuqtai nazaridan, tariximiz uchun muhim bo'lgan aksariyat ma'lumotlar kitobxonlar uchun noma'lumligicha qolib ketgan. Xonlik tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan manbalar qadrlidir. Qo'qon xonligi tarixiga oid dastlabki shunday mahalliy manbalardan biri Xoja Muhammad Hakimxon To'ra Ho'qandiy tomonidan yozilgan "Muntaxab at tavorix" asari hisoblanadi.

<sup>1</sup> Ikromjon Kuzikulov."Qo'qon xonligi tarixi".o'quv-uslubiy qo'llanma.Namangan-2014.3-4b.

<sup>2</sup> Toshev S. (2020). TARIX FANINI O'QITISHNDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Science and Education, 1 (Special Issue),

<sup>3</sup> Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). International Journal on Integrated Education, 2(5), 212.

Muallif O'rta Osiyodagi yirik tariqat vakillaridan biri Maxdumi A'zamning avlodidandir. Ma'sumxon To'ra Olimxon va Umarxon davrida shayxulislom lavozimini egallagan bo'lib, saroyda xon maslahatchisi hisoblangan. Xonlarga qarindoshligi, qolaversa, otasining obro'si Xakimxon To'raga katta imkoniyatlar ochib berdi. Tog'alari Olimxon va Umarxon bilan harbiy yurishlarda, saroy yig'inlarida va boshqa tantanalarda ishtirok etgan. Muhim ahamiyatga ega ekani ham aynan shunda, ya'ni o'sha davrda yashaganligi va ko'p hodisalar guvohi bo'lgan odamlardan ma'lumot yig'ib asarning qimmatligini oshira olganidir.<sup>4</sup>

Yirik tarixiy manbalardan biri "Tarixi Shohruhiy" asari Niyoz Muhammad Xo'qandiy qalamiga mansub. Niyoz Muhammad Ho'qandiy 1803-yilda Qo'qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan, madrasada ta'lim olgan. Xudoyorxon qo'shinida harbiy kotib lavozimida xizmat qilgan. 1860-yillarda iste'foga chiqqanidan so'ng ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lgan. 1876-yili vafot etgan. Qozoq olimi T. K. Beysembiyevning yozishicha, "Tarixi Shohruhiy" 1871-1872-yillarda Xudoyorxonning ko'rsatmasi bilan fors tilida yozilgan. Asarda Qo'qon xonlarining ayrim yurishlari, xonlikning Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqasi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. "Tarixi Shoxruxiy" asari XVIII asr boshlaridan tortib to XIX asrning 70-yillarigacha Qo'qon xonligida bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga olgan.

"Tarixi Farg'ona" asari ham Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan manbalardan biridir. Asar 1916-yilda tarixchi olim Ishoqxon Junaydullo o'g'li Ibrat tomonidan nashr etilgan. Asarda minglarning hokimiyat tepasiga kelishidan tortib, to xonlikning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishigacha bo'lgan ulkan davr tasvirlab berilgan. Har bir Qo'qon xonlari davrlari, harbiy yurishlar, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, qo'zg'olonlar, rus bosqini, uning oqibatlar va xonlikning eng katta shaharlari haqidagi ma'lumotlar berilgan. "Tarixi Farg'ona" biz uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy asardir.

Qo'qon tarixnavisligi ko'pincha siyosiy maqsadlarda xizmat qilgan. Tarixiy asarlar hukmdorlarning siyosiy iqtidorini yuksaltirish, ularning qonuniyligini mustahkamlash, ichki nizolarni yengillashtirish va tashqi dushmanlarga qarshi ruhiy tayyorgarlikni oshirish uchun yozilgan. Shu bois, ba'zi tarixiy voqealar siyosiy nuqtai nazardan moslashtirilgan yoki tahrir qilingan bo'lishi mumkin. Tarixiy manbalar hukmdorlar buyurtmasi bilan yaratilganligi sababli, ular ko'pincha hukmdorlar tarafdorlari nazarida yozilgan. Biroq, shu bilan birga, ushbu manbalar orqali o'sha davr siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning umumiy tasviri hosil qilish mumkin.

Xonlik tarixini o'rganishda tarixiy hujjatlar, boshqacha qilib ifodalaganda, rus sayyohlari, elchilari va tarixchilarining asarlari ham asosiy o'rin tutadi. Bunday hujjatlarning aksariyati hozirda davlat arxivlarida saqlanadi. Xonlik tarixiga oid hujjatlarning aksariyati rus sayyoh va elchilarning mehnatlari asosida vujudga kelgan. Masalan, Filipp Nazarovning "Записки о некоторых народах и землях средней части Азии Филиппа Назарова" (1821-yil), I. Potaning "Записки о Кокандском ханстве хоронжего Потанина" (1830-yil), Maksimovning "Показание Сибирского казака Максимова о Кокандском владении" (1860-yil), V. V. Vel'yaminov-Zernovning "Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед-Али до Худаярхана" (1856-yil), "Сведения о Кокандском ханстве" (1856-yil), I. D.

<sup>4</sup> O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma T.: Yangi nashr, Respublika ta'lim markazi, 2022, - 252 b.

Gorchakovning “Обозрение Кокандского ханстве в нынешним его состоянии” (1846-yil), A. G. Serebrinnikovning “К истории Кокандского ханства” (1876-yil), N. Pantusovning “О податах и повинностях существовавших в бывшем Кокандском ханстве в последнее время правление Худояр-Хана” (1876-yili), V. Nalivkinning “Краткая история Кокандского ханства” (1886-yil) va boshqalar shunday asarlar qatoriga kiradi. Bu asarlarning muhimligi shundaki, ular chuqur o'rganilgan va ilmiy asoslangan. Mualliflarning barchasi xonlik hududida bo'lib, mahalliy aholi hayoti bilan yaxshi tanish bo'lgan.<sup>5</sup>

Bu asarlar orqali O'rta Osiyoning tarixiy va madaniy merosi, xalqning dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari va adabiy an'analari haqida chuqurroq ma'lumot olish mumkin. Tarixiy asarlarni tahlil qilish orqali xonlikning siyosiy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tashqi siyosati haqida batafsil ma'lumotlar yig'iladi. Bu esa mintaqaning umumiy tarixiy jarayonlarini yanada aniqroq o'rganishga imkon beradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, XIX asrning boshlarida Amir Umarxon davrida Qo'qonda tarixiy asarlar yozila boshlandi. Fazliy Namangoniy, Mushrif Isfaragiy, Niyoz Muhammad Xo'qandiy, Ishoqxon Ibrat va rus yozuvchilari tomoidan yozilgan asarlari Qo'qon tarixchilik maktabining eng yirik durdonalari hisoblangan. Shunday qilib, Qo'qon tarixshunosligini yoritishda ko'plab tarixchi, shoir, yozuvchi kabi ilmi toliblar o'zining bir qancha asarlari orqali katta hissa qo'shdilar va Qo'qon tarixshunoslik maktabining mavqeini kuchaytirdilar.

#### Adabiyotlar:

1. Ikromjon Kuzikulov. “Qo'qon xonligi tarixi”. o'quv-uslubiy qo'llanma. Namangan-2014
2. G'afforov, Y., Nafasov, A., & Nafasova, Z. (2020). From the History of the Beginning of the “Great Game”. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 2798-2802.
3. Abdurakhmanova, J. N. (2020). The policy of tolerance in Uzbekistan (in the case of Greeks). *International Journal on Integrated Education*, 2(5), 212.
4. Toshev S. (2020). TARIX FANINI O'QITISHNDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Science and Education*, 1 (Special Issue),

<sup>5</sup> Ikromjon Kuzikulov. “Qo'qon xonligi tarixi”. o'quv-uslubiy qo'llanma. Namangan-2014. 9-b